Ashraf va Shen tomonidan olib borilgan tadqiqotda iqtisodiy siyosat noaniqligi (Economic Policy Uncertainty – EPU) bank kreditlash faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilingan. Nazariy jihatdan, mualliflar EPUning oshishi banklar tomonidan xavfni baholash mexanizmlarini o'zgartirishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Xususan, iqtisodiy siyosatdagi noaniqlik banklar uchun biznes muhitini noaniqlashtirib, ularni kredit risklarini kamaytirish uchun foiz stavkalarini oshirishga yoki kredit berish me'yorlarini qattiqashtirishga majbur qilishi mumkin. Bu esa kredit bozorining samaradorligiga salbiy ta'sir qilishi ehtimolini oshiradi. Empirik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, iqtisodiy siyosat noaniqligi ortgan holatlarda banklar o'zlarining kredit berish siyosatida ehtiyotkorlikni kuchaytiradilar. Tadqiqot davomida 2000–2016-yillar oralig'ida banklarning kredit foiz stavkalari va EPU indeksi o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy bog'liqlik aniqlangan. Bu shuni anglatadiki, EPU yuqori bo'lgan davrlarda banklar kreditlar bo'yicha stavkalarni oshiradi, bu esa biznes sub'yektlari uchun qarz olish xarajatlarini ko'paytirib, iqtisodiy faollikni susaytirishi mumkin. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari EPUning banklar tomonidan kredit berish hajmiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi, ya'ni noaniqlik sharoitida banklar kredit ajratish miqdorini kamaytiradi.²

Batrancea, Rathnaswamy va Batrancea tadqiqotida yettita BCBS (Bazel qoidalariga a'zo bo'lmagan) mamlakatda iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi asosiy omillar panel ma'lumotlar tahlili yordamida o'rganilgan. Nazariy jihatdan, mualliflar iqtisodiy o'sishning asosiy belgilari sifatida moliyaviy institutlarning rivojlanishi, investitsiya darajasi, inflyatsiya, savdo ochiqqligi va davlat sarf-xarajatlarning rolini ko'rib chiqadilar. Ularning gipotezasiga ko'ra, moliyaviy institutlarning samarali faoliyati va tartibga solish mexanizmlari iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim omil hisoblanadi, shuningdek, davlat tomonidan amalga oshiriladigan iqtisodiy siyosatlar ham barqaror o'sishga ta'sir ko'rsatadi. Empirik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, moliyaviy sektori rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish sur'ati yuqoriroq bo'ladi. Panel ma'lumotlar tahlili natijasida moliyaviy institutlarning samaradorligi va kredit bozorining rivojlanganligi iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Shu bilan birga, inflyatsiya darajasining ortishi iqtisodiy o'sishni sekinlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'lgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, BCBS a'zosi bo'lmagan mamlakatlarda moliyaviy siyosat va institutsional tuzilmalarning takomillashtirilishi iqtisodiy o'sishga salmoqli hissa qo'shishi mumkin.³

Zidan o'z tadqiqotida bank sektori va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni Falastin iqtisodiyoti misolida tahlil qilgan. Nazariy jihatdan, muallif bank sektori rivojlanishining iqtisodiy o'sishga ta'siriga oid turli nazariyalarni ko'rib chiqib, moliyaviy vositachilik, kredit ajratish, investitsiyani rag'batlantirish va moliyaviy barqarorlik mexanizmlarining ahamiyatini ta'kidlaydi. Tadqiqotga asosan, samarali bank tizimi kapital taqsimoti va investitsiya jarayonlarini yaxshilash orqali iqtisodiy o'sishni jadallashtirishi mumkin. Empirik tahlil natijalari 1995–2017-yillar davridagi Falastin iqtisodiyotiga oid ma'lumotlarga asoslanib, bank sektori va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi ijobiy bog'liqlikni ko'rsatadi. Regressiya tahlili natijalariga ko'ra, bank kreditlarining yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sishiga salmoqli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Shu bilan birga, tadqiqotda bank tizimining cheklanganligi va siyosiy noaniqlik iqtisodiy o'sishni sekinlashtiruvchi omillar sifatida qayd etilgan. Muallif Falastin iqtisodiyotida

1 Dansana, D., Patro, S. G. K., Mishra, B. K., Prasad, V., Razak, A., & Wodajo, A. W. (2024). Analyzing the impact of loan features on bank loan prediction using Random Forest algorithm. *Engineering Reports*, 6(2), e12707.

2 Ashraf, B. N., & Shen, Y. (2019). Economic policy uncertainty and banks' loan pricing. *Journal of Financial Stability*, 44, 100695.

3 Batrancea, L., Rathnaswamy, M. K., & Batrancea, I. (2022). A panel data analysis on determinants of economic growth in seven non-BCBS Countries. *Journal of the Knowledge Economy*, 13(2), 1651-1665.



bank sektori rivojlanishi uchun institutsional islohotlar va moliyaviy tartibga solish mexanizmlarini kuchaytirish lozimligini ta'kidlaydi.⁴

Ozili, Ademiju va Rachid tadqiqotida moliyaviy inklyuziyaning iqtisodiy o'sishga ta'siri borasidagi mavjud adabiyotlar tahlil qilingan. Nazariy jihatdan, mualliflar moliyaviy inklyuziya iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi asosiy omillardan biri ekanligini ta'kidlaydilar. Xususan, moliyaviy xizmatlarga kengroq dasturiy yo'naltirish orqali aholining turli qatlamlari kredit, omonat va sug'urta xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa tadbirkorlikni rag'batlantirib, yalpi ichki mahsulot (YalM) o'sishiga hissa qo'shadi. Shuningdek, tadqiqot moliyaviy inklyuziya ijtimoiy tenglikni oshirish, kambag'allikni kamaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutishi haqidagi nazariy yondashuvlarni ham ko'rib chiqadi. Empirik tahlil natijalari mavjud tadqiqotlarning umumiy xulosalarini baholashga qaratilgan bo'lib, aksariyat empirik ishlarda moliyaviy inklyuziya va iqtisodiy o'sish o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligi tasdiqlangan. Ammo ba'zi tadqiqotlarda moliyaviy inklyuziyaning samarasi moliyaviy infratuzilma va institutsional sifatga bog'liq ekanligi qayd etilgan. Shu bois, mualliflar moliyaviy inklyuziya siyosati samaradorligini oshirish uchun institutsional islohotlar, moliyaviy savodxonlikni kuchaytirish va texnologiyadan keng foydalanishni tavsiya qiladilar. Tadqiqot kelgusi izlanishlar uchun moliyaviy inklyuziyaning turli mamlakatlardagi ta'sir mexanizmini chuqurroq o'rganishni taklif etadi.⁵

Chen, Kumara va Sivakumar tadqiqotida moliya sanoatining xavf-xatarlarni anglash modeli va raqamli iqtisodiy o'sishga ta'siri o'rganilgan. Nazariy jihatdan, mualliflar moliyaviy sektorning rivojlanishi raqamli iqtisodiyotda xavflarni boshqarish modellari bilan uzviy bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar. Ular moliya sanoatining raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini va xavf-xatarlardan samarali himoyalash mexanizmlarini shakllantirishda muhim o'rin tutishini ko'rsatadilar. Shuningdek, tadqiqotda xavf-xatarlarni anglash modeli (Risk Awareness Model) orqali moliyaviy bozorlardagi noaniqlik va risklarni minimallashtirish usullari muhokama qilingan. Empirik tahlil natijalari moliya sohasi va raqamli iqtisodiy o'sish o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Mualliflar yirik moliyaviy tashkilotlar va raqamli texnologiyalarni keng joriy etgan kompaniyalar ma'lumotlarini tahlil qilib, raqamli moliyaviy xizmatlarning o'sishi iqtisodiy samaradorlikni oshirishini aniqlaydilar. Shuningdek, tadqiqot natijalari moliyaviy xavflarni anglash va boshqarish modellari samarali amalga oshirilganda, raqamli iqtisodiyot barqaror o'sishni ta'minlashi mumkinligini ko'rsatadi. Mualliflar kelgusi tadqiqotlar uchun raqamli moliyada xavflarni baholashning yangi modellarini ishlab chiqishni taklif etadilar.⁶

Ratnawati tadqiqotida moliyaviy inklyuziyaning iqtisodiy o'sish, kambag'allik, daromad tengsizligi va moliyaviy barqarorlikka ta'siri Osiyo mamlakatlari misolida tahlil qilingan. Nazariy jihatdan, muallif moliyaviy inklyuziyaning ahamiyatini ta'kidlab, uning iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi, kambag'allikni kamaytirishi va ijtimoiy tenglikni ta'minlashda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Shuningdek, moliyaviy xizmatlarga kengroq kirish imkoniyati aholi va biznes sub'yektlariga moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, investitsiyalarni oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish imkonini berishi qayd etilgan. Empirik tahlil natijalari Osiyo mamlakatlari bo'yicha 2005–2018-yillar davomidagi ma'lumotlarga asoslanib, moliyaviy inklyuziya va iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Regressiya tahlili natijalariga ko'ra, moliyaviy inklyuziya yalpi ichki mahsulot (YalM) o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan, kambag'allik darajasini kamaytirishga yordam bergan va daromad tengsizligini qisqartirishga hissa qo'shgan. Shu bilan birga, muallif moliyaviy inklyuziyaning moliyaviy barqarorlikka ta'siri murakkab ekanligini ta'kidlaydi, chunki beparvolik bilan amalga oshirilgan inklyuziv moliyaviy siyosat moliyaviy risklarni oshirishi mumkin. Ushbu tadqiqot kelgusi izlanishlar uchun moliyaviy inklyuziyani tartibga solish va samarali boshqarish mexanizmlarini yanada chuqurroq o'rganishni taklif etadi.⁷

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda induksiya, deduksiya, sintez va qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan. Shuningdek, tijorat banklari resurs bazasi barqarorligini tahlil qilishda tijorat banklarining rasmiy statistik ma'lumotlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Quyidagi statistik ma'lumotlarga asoslanib, investitsiyalar va asosiy kapitalga yo'naltirilgan mablag'lar dinamikasi bo'yicha tahlil o'tkaziladi (1-jadval).

- 4 Zidan, K. (2019). The impact of banking sector on economic growth: Empirical analysis from Palestinian economy. *International Journal of Economics and Financial Issues*, 9(1), 1-6.
- 5 Ozili, P. K., Ademiju, A., & Rachid, S. (2022). Impact of financial inclusion on economic growth: review of existing literature and directions for future research. *International Journal of Social Economics*, 50(8), 1105-1122.
- 6 Chen, Y., Kumara, E. K., & Sivakumar, V. (2021). Investigation of finance industry on risk awareness model and digital economic growth. *Annals of Operations Research*, 1-22.
- 7 Ratnawati, K. (2020). The impact of financial inclusion on economic growth, poverty, income inequality, and financial stability in Asia. *The Journal of Asian Finance, Economics and Business*, 7(10), 73-85.

1-jadval. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning klassifikatorlari⁸.

Klassifikator	2019 y.	Ulushi	2020 y.	Ulushi	2021 y.	Ulushi	2022 y.	Ulushi	2023 y.	Ulushi
Turar-joy binolari	20621,9	7,0%	23200,8	7,4%	29851	8,7%	30184,2	8,2%	36732,7	7,4%
Noturar-joy binolari	33408,1	11,3%	38172,7	12,2%	50894,5	14,8%	58225,1	15,8%	75452,9	15,2%
Boshqa inshootlar	23148,7	7,8%	27039	8,6%	30290,6	8,8%	43393,4	11,8%	44244,1	8,9%
Yerni yaxshilash	127,3	0,0%	285,9	0,1%	277,1	0,1%	257,1	0,1%	1000,4	0,2%
Mashina va uskunarlar, jami	107305,8	36,2%	110493,8	35,2%	113863,9	33,1%	115040	31,2%	168810,7	34,0%
Transport uskunolari	16588,2	5,6%	12415,2	4,0%	14574,5	4,2%	10718,7	2,9%	25608,4	5,2%
Axborot, kompyuter va telekommunikatsiya (AKT) uskunolari	3194,8	1,1%	7347	2,3%	5325,6	1,5%	5199,7	1,4%	10230	2,1%
Boshqa mashina va uskunalar	87522,7	29,6%	90731,6	28,9%	93963,8	27,3%	99164,6	26,9%	126694,6	25,5%
Bir necha marta mahsulot beruvchi, xayvonlar resurslari	2418,9	0,8%	2843	0,9%	3656,8	1,1%	3847,8	1,0%	390,3	0,1%
Bir necha marta mahsulot beruvchi daraxtlar, qishloq xo'jalik ekinlari va ko'chatlar resurslari	372	0,1%	880,7	0,3%	838,6	0,2%	783,8	0,2%	364,5	0,1%
Noishlab chiqarish aktivlarga mulk huquqini berish bilan bog'liq xarajatlar	198,1	0,1%	225	0,1%	138,2	0,0%	365,8	0,1%	562,4	0,1%
Komyuter dasturiy ta'minoti va ma'lumotlar bazalari	28,7	0,0%	25,2	0,0%	98,6	0,0%	154,9	0,0%	1672,8	0,3%
Ko'ngilochar, adabiy va badiiy asarlarning asl nusxalari	3,7	0,0%	1,6	0,0%	0,8	0,0%	26	0,0%	16,8	0,0%
Ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar	5,9	0,0%	86,5	0,0%	30,8	0,0%	210,7	0,1%	469,4	0,1%
Foydali qazilmalar zahiralari razvedka qilish va baholash	763,7	0,3%	26,7	0,0%	96,4	0,0%	203,6	0,1%	410,7	0,1%
Boshqa intellektual mulk mahsulotlari	330,1	0,1%	229	0,1%	292,3	0,1%	1169	0,3%	4546,9	0,9%
Jami	296038,6		314003,7		344193,5		368944,4		497207,6	

Turar-joy binolariga investitsiyalar 2019–2023-yillar davrida barqaror o'sishga erishdi. 2019-yilda 20 621,9 mlrd so'm bo'lgan investitsiya hajmi 2023-yilga kelib 36 732,7 mlrd so'mga yetdi. Bu davr mobaynida 78 foizdan ortiq o'sish qayd etildi. Eng katta o'sish 2020–2021-yillarda sodir bo'lgan bo'lib, bu holat yangi qurilish loyihalariga va urbanizatsiya jarayoniga bo'lgan talabning ortganligi bilan izohlanadi.

Noturar-joy binolariga yo'naltirilgan investitsiyalarda ham barqaror o'sish kuzatildi. 2019-yilda 33 408,1 mlrd so'm bo'lgan mablag' hajmi 2023-yilda 75 452,9 mlrd so'mga yetdi. Bu esa 125 foizdan ortiq o'sishni anglatadi. Ushbu yo'nalishdagi o'sish sanoat, savdo va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Boshqa inshootlarga investitsiyalar hajmi 2019-yilda 23 148,7 mlrd so'm bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda 44 244,1 mlrd so'mga yetgan. Ayniqsa, 2021–2022-yillar oralig'ida sezilarli o'sish qayd etilgan. Bu holat infratuzilma loyihalarining kengayishi bilan bog'liq bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Yerni yaxshilashga yo'naltirilgan investitsiyalar keskin o'zgaruvchan bo'lib, 2023-yilda 1 000,4 mlrd so'mga yetdi. Bu esa oldingi yillarga nisbatan sezilarli o'sishni anglatadi. Mazkur mablag'lar irrigatsiya va melioratsiya ishlari hajmining ortganligidan dalolat beradi.

8 O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



Mashina va uskunalarga yo'naltirilgan investitsiyalar eng katta ulushni tashkil etgan bo'lib, 2019-yilda 107 305,8 mlrd so'm bo'lgan bu ko'rsatkich 2023-yilda 168 810,7 mlrd so'mga yetgan. Bu holat sanoatni modernizatsiya qilish jarayonining faollashganligini ko'rsatadi.

Transport uskunalariga investitsiyalar esa nisbatan o'zgaruvchan bo'lib, 2020-yilda pasayish kuzatilgan. Biroq 2023-yilda bu ko'rsatkich 25 608,4 mlrd so'mga yetgan. Bu o'sish jamoat transporti infratuzilmasini rivojlantirish va logistika xizmatlarini kengaytirish bilan bog'liq bo'lishi mumkin.


AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) uskunalariga yo'naltirilgan investitsiyalar 2019–2023-yillar davomida sezilarli o'sishga erishdi. 2023-yilda bu yo'nalishdagi mablag' hajmi 10 230 mlrd so'mga yetdi. Bu raqam raqamli transformatsiya va IT infratuzilmasini modernizatsiya qilish jarayonining tezlashganligini ifodalaydi.

Boshqa mashina va uskunalar kabi yo'nalishlardagi investitsiyalar ham doimiy o'sib borgan. 2019-yilda 87 522,7 mlrd so'm bo'lgan ko'rsatkich 2023-yilda 126 694,6 mlrd so'mga yetgan. Bu holat sanoat korxonalarining texnik qayta jihozlanishiga berilgan e'tibor bilan izohlanadi.

Biologik aktivlar va qishloq xo'jaligi investitsiyalarida 2023-yilda sezilarli kamayish kuzatildi. Masalan, bir necha marta mahsulot beruvchi hayvonlar resurslariga yo'naltirilgan investitsiyalar 2019-yildagi 2 418,9 mlrd so'mdan 390,3 mlrd so'mga tushgan. Shuningdek, daraxtlar va qishloq xo'jaligi ekinlariga ajratilgan mablag'lar hajmi ham kamaygan.

Boshqa tomondan, noishlab chiqarish aktivlariga yo'naltirilgan investitsiyalar sezilarli o'sishni ko'rsatdi. 2019-yildagi 198,1 mlrd so'mlik mablag' 2023-yilga kelib 562,4 mlrd so'mga yetdi. Bu esa ko'chmas mulk bozori va boshqa noishlab chiqarish yo'nalishlariga bo'lgan qiziqishning ortganligidan dalolat beradi.

Intellectual mulk va ilmiy tadqiqotlarga yo'naltirilgan investitsiyalar ham keskin oshgan. 2019-yilda ilmiy tadqiqotlarga atigi 5,9 mlrd so'm ajratilgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 469,4 mlrd so'mga yetgan. Bu ilmiy-texnikaviy rivojlanishga qaratilgan e'tiborning kuchayganligini bildiradi. Boshqa intellektual mulk mahsulotlariga ajratilgan investitsiyalar ham jiddiy o'sib, 2019-yilda 330,1 mlrd so'm bo'lgan mablag' 2023-yilda 4 546,9 mlrd so'mga yetgan. Bu esa intellektual mulk himoyasi va innovatsion ishlanmalarga qiziqish ortganligining yorqin isbotidir (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyaning o'zgarish dinamikasi⁹.

Yuqoridagi jadval asosida asosiy kapitalga qilingan investitsiyalar hajmining o'sishi va uning dinamikasini tahlil qilish mumkin. Birinchi navbatda, 2010–2023-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga

⁹ O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Yillik o'sish sur'ati jadvalida keltirilgan to'rt ko'rsatkichlarni o'rtacha aniqlanadi. 2011-yilda investitsiyalar hajmi 18,4 % ga oshgan bo'lsa, 2012–2014-yillarda bu ko'rsatkich o'rtacha 24 % ni tashkil etgan. Ushbu barqaror o'sish davlatning iqtisodiyotni modernizatsiya qilishga bo'lgan ustuvor e'tiborini ifodalaydi. Biroq 2015–2016-yillarda yillik o'sish sur'ati pasayib, mos ravishda 19 % va 13,3 % ni tashkil etgan. Bu davrda global iqtisodiy vaziyat va ichki moliyaviy cheklavlar o'sishga ta'sir qilgan bo'lishi mumkin.

2017–2019-yillarda esa investitsiyalar hajmining keskin oshgani kuzatilgan. Ayniqsa, 2018-yilda investitsiyalar hajmi 72,2 % ga oshib, 124 231,3 mlrd so'mga yetgan. Bu holat yirik infratuzilma loyihalarining amalga oshirilishi va xalqaro moliyaviy institutlardan jalb etilgan mablag'lar bilan bog'liq. 2019-yilda o'sish sur'ati 57,7 % ni tashkil etib, investitsiyalar hajmi 195 927,3 mlrd so'mga yetgan. Bu yillardagi o'sish iqtisodiyotda ochiqlik siyosatining joriy qilinishi, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash va tartibga solish mexanizmlarining kuchaytirilishi bilan bog'liq.

Quyidagi jadval asosida O'zbekiston viloyatlari bo'yicha asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi va ulushi tahlil qilinadi.

2016–2023-yillar oralig'ida O'zbekiston Respublikasining asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalari hajmi 51 232 mlrd so'mdan 356 071,4 mlrd so'mgacha oshgan. Bu ko'rsatkich investitsiyalar hajmi 7 barobardan ko'proq oshganini anglatadi. Natijada mamlakatning barcha hududlarida investitsion faollik ortgan.

2023-yilda Toshkent shahri 20 % ulush bilan asosiy kapitalga investitsiyalarning eng katta qismini jalb qilgan. 2016-yilda bu ko'rsatkich 18,1 % ni tashkil etgan bo'lib, poytaxtning investitsion salohiyati yildan-yilga mustahkamlangan. Toshkent shahri iqtisodiy markaz sifatida rivojlanmoqda, bu esa yirik infratuzilma loyihalarining aynan ushbu hududda to'planganini ko'rsatadi.

Toshkent viloyati ham sezilarli natijalarga erishgan. 2016-yilda 8,3 % bo'lgan ulush 2023-yilda 13,4 % ga yetgan. Bu viloyatda sanoat va infratuzilma yo'nalishlariga jalb etilgan investitsiyalar salmog'i ortgan. Buxoro viloyatida esa 2023-yilda 8,7 % ulush qayd etilib, bu uni viloyatlar ichida uchinchi o'ringa olib chiqadi. Ushbu holat, ehtimol, turizm va energetika yo'nalishlariga qaratilgan e'tibor bilan izohlanadi.

Qashqadaryo viloyatining ulushi 2016-yildagi 14,3 % dan 2023-yilda 5,9 % ga kamaygan. Bu hududdagi investitsiyaviy faollik pasaygani yoki resurslar boshqa hududlarga yo'naltirilgani ehtimoli mavjud.

Navoiy viloyatida 2023-yilga kelib investitsiyalar ulushi 7,4 % ni tashkil etib, 2016-yildagi ko'rsatkichga nisbatan ijobiy o'sishni ifodalaydi. Samarqand viloyati esa 7,2 % ulush bilan yuqori darajada rivojlangan hududlar qatorida qolmoqda. Ikkala viloyatda ham sanoat, transport va logistika sohalariga yo'naltirilgan sarmoyalar muhim rol o'ynagan.

Andijon viloyatida 2016-yilda 4,3 % bo'lgan ulush 2023-yilda 5,2 % ga yetgan. Bu avtomobil sanoati va qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan investitsiyalar natijasidir.

Surxondaryo viloyatining 2023-yildagi ulushi 5,1 % ni tashkil etib, bu iqtisodiy faollikning ortib borayotganini ko'rsatadi. Namangan viloyatida esa 2023-yilda 5,4 % ulush qayd etilgan. Ikkala hududda ham kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlarining samarasini ko'rish mumkin.

Jizzax viloyatida 2016-yilda 2,8 % bo'lgan investitsiyalar ulushi 2023-yilga kelib 4,2 % ga oshgan. Sirdaryo viloyati ham o'z ulushini 4,5 % gacha yetkazgan bo'lib, bu hududlarda iqtisodiy faollikning kuchayganini ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval. Asosiy kapitalga investitsiyalarning viloyatlar kesimida o'zgarish tendensiyasi (mlrd. so'm)¹⁰.

	2016	Ulushi	2019	Ulushi	2020	Ulushi	2021	Ulushi	2022	Ulushi	2023	Ulushi
O'zbekiston Respublikasi	51232,0		195927,3		210195,1		239552,6		266240		356071,4	
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3778,3	7,4%	8750,6	4,5%	7089,8	3,4%	8110,7	3,4%	10254	3,9%	12959,2	3,6%
Andijon viloyati	2188,5	4,3%	7452,1	3,8%	9622,6	4,6%	11176,6	4,7%	14339,8	5,4%	18639,1	5,2%
Buxoro viloyati	5922,9	11,6%	10366,6	5,3%	12183,9	5,8%	20528,3	8,6%	21638,3	8,1%	31030,5	8,7%
Jizzax viloyati	1449,7	2,8%	7900,9	4,0%	12545,4	6,0%	9233,6	3,9%	10373,9	3,9%	14970,9	4,2%
Qashqadaryo viloyati	7304,4	14,3%	24462,5	12,5%	20557,6	9,8%	17359,1	7,2%	16012,8	6,0%	21138	5,9%
Navoiy viloyati	2963,2	5,8%	17646,3	9,0%	15688,4	7,5%	15020,1	6,3%	17958,1	6,7%	26398,6	7,4%
Namangan viloyati	2824,5	5,5%	12084,9	6,2%	12007,2	5,7%	12982	5,4%	14775,1	5,5%	19220,1	5,4%
Samarqand viloyati	3623,5	7,1%	10266,7	5,2%	14656,4	7,0%	15641,6	6,5%	18917,1	7,1%	25717,1	7,2%
Surxondaryo viloyati	2142,4	4,2%	11835,1	6,0%	10068,2	4,8%	12037,8	5,0%	11569,4	4,3%	18307,7	5,1%

10 O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



Sirdaryo viloyati	1322,9	2,6%	5869,1	3,0%	7191,9	3,4%	8051,8	3,4%	12354,6	4,6%	15871,8	4,5%
Toshkent viloyati	4238,7	8,3%	20353,9	10,4%	21148,6	10,1%	28113,6	11,7%	35767,7	13,4%	47709,3	13,4%
Farg'ona viloyati	2643,6	5,2%	8685,4	4,4%	11040	5,3%	12625,2	5,3%	15419,3	5,8%	19955	5,6%
Xorazm viloyati	1560,5	3,0%	5032	2,6%	5391,8	2,6%	8292	3,5%	8769,7	3,3%	11666,1	3,3%
Toshkent shahri	9268,9	18,1%	42458,1	21,7%	50371,4	24,0%	58172,7	24,3%	56847,9	21,4%	71143,7	20,0%

Farg'ona viloyatining ulushi 2023-yilda 5,6 % ni tashkil etgan. Ushbu hududda qishloq xo'jaligi va qayta ishlash sanoatiga yo'naltirilgan loyihalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xorazm viloyatida esa investitsiyalar ulushi 2016-yildagi 3,0 % dan 2023-yilda 3,3 % ga biroz oshgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasida investitsiyalar ulushi 2016-yildagi 7,4 % dan 2023-yilda 3,6 % ga pasaygan. Bu holat hududda tabiiy resurslarni qayta ishlash, infratuzilmani rivojlantirish va investitsion jozibadorlikni oshirish bo'yicha chora-tadbirlar kuchaytirilishi zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu pasayish mamlakatning boshqa hududlarida investitsion faollikning ortganligi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi statistik ma'lumotlar mamlakatda iqtisodiy rivojlanishning turli yo'nalishlar bo'yicha qanday amalga oshayotganligini aniq ko'rsatadi. Infratuzilma, sanoat, ilmiy tadqiqotlar va intellektual mulk sohalarida sezilarli o'sish kuzatilmoqda. Bu esa iqtisodiy taraqqiyot va modernizatsiya jarayonlarining jadallashayotganidan dalolat beradi.

2020–2023-yillar davomida pandemiya va global iqtisodiy inqirozga qaramay, investitsiyalar hajmi doimiy o'sishda davom etgan. 2020-yilda o'sish sur'ati 7,3 % ga pasaygan bo'lsa-da, 2021-yilda bu ko'rsatkich tiklanib, 14 % ni tashkil etgan. 2023-yilda esa o'sish sur'ati keskin oshib, 33,7 % ga yetgan. Bu yillardagi o'sish iqtisodiy siyosatda investitsion muhitni yaxshilash, tadbirkorlikni rivojlantirish, va xususiy sektorga ko'maklashish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlarning ijobiy natijasi sifatida baholanadi.

Umuman olganda, asosiy kapitalga qilingan investitsiyalar iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim omil bo'lib, mamlakatning kelgusidagi rivojlanish strategiyasi uchun ishonchli poydevor yaratgan.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning viloyatlar kesimidagi o'zgarish tendensiyalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning barcha hududlari iqtisodiy rivojlanishda o'ziga xos yo'nalishga ega. Ayrim hududlarda investitsiyalar ulushi ortgan bo'lsa, boshqalarida pasayish kuzatilmoqda. Bu tendensiyalarni hududiy siyosatni yanada takomillashtirish, resurslarni strategik taqsimlash, hamda hududlararo iqtisodiy muvozanatni ta'minlash orqali muvofiqlashtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Dansana, D., Patro, S. G. K., Mishra, B. K., Prasad, V., Razak, A., & Wodajo, A. W. (2024). Analyzing the impact of loan features on bank loan prediction using R andom F orest algorithm. *Engineering Reports*, 6(2), e12707.
- Ashraf, B. N., & Shen, Y. (2019). Economic policy uncertainty and banks' loan pricing. *Journal of Financial Stability*, 44, 100695.
- Batrancea, L., Rathnaswamy, M. K., & Batrancea, I. (2022). A panel data analysis on determinants of economic growth in seven non-BCBS Countries. *Journal of the Knowledge Economy*, 13(2), 1651-1665.
- Zidan, K. (2019). The impact of banking sector on economic growth: Empirical analysis from Palestinian economy. *International Journal of Economics and Financial Issues*, 9(1), 1-6.
- Ozili, P. K., Ademiju, A., & Rachid, S. (2022). Impact of financial inclusion on economic growth: review of existing literature and directions for future research. *International Journal of Social Economics*, 50(8), 1105-1122.
- Chen, Y., Kumara, E. K., & Sivakumar, V. (2021). Investigation of finance industry on risk awareness model and digital economic growth. *Annals of Operations Research*, 1-22.
- Ratnawati, K. (2020). The impact of financial inclusion on economic growth, poverty, income inequality, and financial stability in Asia. *The Journal of Asian Finance, Economics and Business*, 7(10), 73-85.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
